


## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-dekabr\*)

2019 yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 550,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta oshib ketdi. Shu jumladan, eksport hajmi 139,7 mln. AQSH dollariga (136,8%ga ko'paygan) va import hajmi 410,9 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 2,4 marta)ga etdi. Tashqi savdo saldosini minus 271,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


**Viloyatning tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSH dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

\*dastlabki ma'lumot

### Tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning boshidan buyon deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

### Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar (mln. AQSH dollari)


| Davlat nomi  | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi |                      |
|--------------|------------------------|---------|--------|------------------------|----------------------|
|              |                        |         |        | ulushi, %              | o'zgarish sur'ati, % |
| Xitoy        | 133,7                  | 9,6     | 124,1  | 24,3                   | 2,0 m.               |
| Rossiya      | 77,5                   | 29,4    | 48,1   | 14,1                   | 99,7                 |
| Meksika      | 42,5                   | 0,0     | 42,5   | 7,7                    | 425,0 m.             |
| Braziliya    | 42,2                   | 0,0     | 42,2   | 7,7                    | 2341,8 m.            |
| Turkiya      | 37,8                   | 6,6     | 31,2   | 6,9                    | 2,1 m.               |
| Qirg'iziston | 37,6                   | 36,9    | 0,7    | 6,8                    | 36,9 m.              |

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 31,9%ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 146,8%ni tashkil qildi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 68,1% ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,5 martagacha o'sdi.

**Tashqi savdo aylanmasidagi MDX mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**  
(mln. AQSH dollari)




■ MDX mamlakatlari



■ Boshqa mamlakatlar

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH dollari)



|  |                            |
|--|----------------------------|
| Paxta tolasi                             | Qora va rangli metallar    |
| Oziq-ovqat mahsulotlari                  | Mashina va asbob-uskunalar |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari          | Xizmatlar                  |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | Boshqalar                  |


### Eksport tarkibi

|  | Jami            |                          |                           | MDH davlatlari  |                          |                           | Boshqa davlatlar |                          |                           |
|--|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
|  | Mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Mln. AQSH doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| <b>Eksport</b>                         | 139,7           | 136,8                    | 100,0                     | 104,0           | 152,4                    | 100,0                     | 35,7             | 105,5                    | 100,0                     |
| <b>Paxta tolasi</b>                    | 7,6             | 69,5                     | 5,4                       | 0,3             | 102,5                    | 0,2                       | 7,3              | 68,8                     | 20,5                      |
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>         | 69,2            | 2,4 m.                   | 49,5                      | 62,9            | 2,4 m.                   | 60,5                      | 6,3              | 3,6 m.                   | 17,6                      |
| <b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b> | 0,8             | 83,5                     | 0,6                       | 0,5             | 88,5                     | 0,5                       | 0,3              | 75,4                     | 0,8                       |

|   |      |         |      |      |        |      |      |        |      |
|---|------|---------|------|------|--------|------|------|--------|------|
| <b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b> | 1,4  | 25,4 m. | 1,0  | 1,1  | 0,0    | 1,1  | 0,3  | 4,7 m. | 0,7  |
| <b>Qora va rangli metallar</b>                  | 0,1  | 4,9 m.  | 0,1  | 0,1  | 0,0    | 0,1  | 0,0  | 0,0    | 0,0  |
| <b>Mashina va asbob - uskunalar</b>             | 0,2  | 15,1    | 0,2  | 0,2  | 2,3 m. | 0,2  | 0,02 | 1,4    | 0,1  |
| <b>Xizmatlar</b>                                | 12,5 | 90,1    | 9,0  | 8,7  | 81,9   | 8,2  | 3,8  | 116,0  | 10,8 |
| <b>Boshqalar</b>                                | 47,9 | 103,3   | 34,2 | 30,2 | 100,4  | 29,2 | 17,7 | 108,6  | 49,5 |


Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,8%ga ko'paygan.

### Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln. AQSH dollari)




## Import tarkibi

|   | Jami            |                          |                           | MDH davlatlari  |                          |                           | Boshqa davlatlar |                          |                           |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
|   | Mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | Mln. AQSH doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| <b>Import</b>                                   | 410,9           | 2,4 m.                   | 100,0                     | 71,6            | 139,5                    | 100,0                     | 339,3            | 170,0                    | 100,0                     |
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>                  | 108,0           | 9,4 m.                   | 26,3                      | 12,9            | 2,4 m.                   | 18,0                      | 95,1             | 15,6 m.                  | 28,0                      |
| <b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>          | 16,6            | 83,9                     | 4,0                       | 7,5             | 122,0                    | 10,5                      | 9,1              | 66,7                     | 2,7                       |
| <b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b> | 1,7             | 8,1 m.                   | 0,4                       | 1,6             | 10,7 m.                  | 2,3                       | 0,1              | 56,0                     | 0,0                       |
| <b>Qora va rangli metallar</b>                  | 5,6             | 89,8                     | 1,4                       | 2,6             | 63,0                     | 3,6                       | 3,0              | 138,9                    | 0,9                       |
| <b>Mashina va asbob-uskunalar</b>               | 170,8           | 2,1 m.                   | 41,6                      | 7,0             | 108,8                    | 9,8                       | 163,8            | 2,2 m.                   | 48,3                      |
| <b>Хизматлар</b>                                | 0,0             | 0,0                      | 0,0                       | 0,0             | 0,0                      | 0,0                       | 0,0              | 0,0                      | 0,0                       |
| <b>Boshqalar</b>                                | 108,2           | 2,1 m.                   | 26,3                      | 40,0            | 137,4                    | 55,9                      | 68,2             | 3,0 m.                   | 20,1                      |


Import qilingan tovar va xizmatlarning o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar- dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o‘shish sur‘atlari dinamikasi (o‘tgan yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovar va xizmatlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 martaga ko‘paygan.


### Tashqi savdo aylanmasida Import dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSH dollari)






## Viloyat tovar va xizmatlar importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

2018 YIL  
YANVAR-DEKABR



2019 YIL  
YANVAR-DEKABR



|             |           |
|-------------|-----------|
| Xitoy       | Xitoy     |
| Rossiya     | Rossiya   |
| Turkiya     | Meksika   |
| Germaniya   | Braziliya |
| Eron        | Turkiya   |
| Qozog'iston | Koreya    |

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 52 ta xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Meksika, Braziliya, Turkiya, va Koreya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 306,0 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 74,5 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:62-224-65-09